

O'ZBEKISTON CHINNI-FAYANS SANOATI TARIHI

Namangan viloyati tarixi va madaniyati

davlat muzeyi hodimi

Davranova. M

Chinni-fayans sanoati – chinni, fayans va boshqa nafis keramika maxsulotlari ishlab chiqaradigan sanoat tarmog'i. Uyro'zg'orda ishlatiladigan chinni buyumlar va badiiy chinni mahsulotlar, fayans, yarim chinni va mayolika mahsulotlari ishlab chiqarishni qamraydi. Chinni-fayans sanoatis. mahsulotlari ro'zg'orda, ayrim sanoat tarmoklarida keng qo'llanadi. Chinni idishlar tayyorlash qad. Xitoyda 4—6-asrlarda paydo bo'ldi. Yevropada birinchi chinni zavodi 1710-yilda Meysen (Germaniya)da, Rossiyada 1744-yilda qurilgan. O'zbekistonda Chinni-fayans sanoati esa asosan, 20-asrning 50-yillaridan rivojlana boshladi. Unga qadar O'rta Osiyoga chinni buyumlar qadimdan Xitoy va Erondan, 19-asrning 2yarmidan boshlab Rossiyadan keltirilgan. Ro'zg'orda, asosan, mahalliy kulollar tayyorlagan sog'yul idishlar (piyola, kosa, lagan, xum, xurmacha, chiroqdon va boshqalar)dan foydalanilgan

1952-yilda Toshkent chinni zavodida milliy bezakli chinni buyumlar ishlab chiqarila boshladi. 1970-yilda yillik ishlab chiqarish kuvvati 22 mln. dona mahsulot bo'lgan Samarqand chinni zavodi, 1978-yilda yillik ishlab chiqarish kuvvati 29 mln. dona mahsulot bo'lgan Quvasoy chinni zavodi ishga tushirildi. 1967-yilda Angren keramika zavodi ishga tushirilishi bilan respublikada turli xil fayans va chinni plitkalar va sanitariyaqurilish mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yiddi.

20-asrning 70-yillari o'rtalarida O'zbekiston Chinni-fayans sanoatis.da 40,5 mln. dona chinni mahsulotlar (shu jumladan, 0,44 mln. dona sanitariyaqurilish buyumlari) ishlab chiqarildi. Respublika Chinni-fayans sanoatis. korxonalarida aholi ehtiyojlari uchun milliy uslubdagi chinni buyumlar (piyola, choynak, kosa, tarelka, lagan, ko'za, sovg'abop to'plamlar), qurilishda ishlatiladigan fayans plitkalar chiqariladi. Tarmoqda „O'zbekengilsanoat“ davlataksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kiradigan korxonalar:

Abdurauf Ibrohimov nomidagi „Toshkent chinni zavodi“ aksiyadorlik jamiyati, Samarqand „Nafis“ aksiyadorlik jamiyati, „Quvasoy chinnisi“ aksiyadorlik jamiyati. 2003-yilda tarmoq korxonalarida 44 mln. dona chinni mahsulotlari ishlab chiqarildi. Chinni buyumlar chet ellarga eksport qilinadi. „Oq oltin“, „Tong“, „Uzum“, „Tovus“, to‘plamlari xalqaro ko‘rgazmalarda oltin medallar bilan taqdirlangan. Chinni (chin so‘zidan) — suv, gaz va elektr o‘tkazmaydigan, o‘tga chidamli, jarangdor, asosan, oq rangli mahsulot; keramikaning nafis turi. Maxsus tuproq (Chinni gili), kaolin, kvars, dala shpati va boshqa xom ashyolar aralashmasidan tayyorlanadi. Chinnidan ro‘zg‘or buyumlari (choynak, piyola, kosa, likopchalar, laganlar), bezak buyumlari (guldon, haykalcha va boshqalar), me‘morlik detallari, sanitariya ya gigiyena buyumlari ishlanadi, kislotalar ta’siriga chidamli (ftorid kislotadan tashqari) bo‘lganidan kimyo sanoatida, elektr o‘tkazmasligi tufayli radiotexnika va elektrotexnikada O‘zbekistonda chinnisozlik san’ati yuksak darajaga ko‘tarilgan, Chinnining tarkibi va tayyorlash texnologiyasi sir saqlangan. 18-asr va 19-asrda Chinnidan bezak mahsulotlar va badiiy buyumlar yasalgan. 20-asr boshlaridagina Chinni sanoat miqyosida ishlab chiqarila boshlagan O‘rta Osiyoga Chinni qadimdan Xitoy va Erondan, keyinchalik Rossiyadan keltirilgan. Mahalliy kulollar (ayniqsa, Rishton kulollari) sopolning Chinniga yaqin xillarini ishlashgan. O‘zbekistonda Chinni sanoati 20-asr 50-yillarida yuzaga keldi, birin-ketin Toshkent, Samarqand, Quva, Angren shaharlarida Chinni zavodlar qurildi O'zbekiston chinnisozlari hozirgi kunda chinni mahsulotlarini ishlabchiqarish va sifatini yanada oshirish hamda mahsulot tan narxini kamaytirish borasida ishlamoqdalar. Toshkent chinni zavodining navbatdagi rekonstruksiya tugatilib, bu korxona 1990yilga kelib yangi q uvvatlar o'zlashtirilishi tufayli yil mobaynida ishlab chiqariladigan buyumlari soni anchagina ko‘payishidir. Keyingi yillarda yengil sanoat buyumlarida respublikamiz ramziy belgilarini aks ettirishga alohida e’tibor berilmoqda. Bu sohada ayniqsa, Toshkent chinnisozlari namunali ishlar olib borishmoqda. Korxona rassomlari Vatanimiz tarixiga oid shonli voqealarni, buyuk kishilarning yorqin siymolarini, respublikamiz iftixori bo'lgan chinni buyumlarda z o ‘r mahorat bilan aks ettirishmoqda. Bu o'rinda Toshkent chinni zavodi rassomlari tomonidan

keyingi yillar ichida yaratilgan «Progress», «Paxta», «Oq oltin», «Tong», «Yubiley», «Dilorom», «Xushband», «Samarqand ansambli» kabi servizlarni esga olish kifoya. Respublikamizda chinnisozlikning rivoj topishida yetuk muhandis va olimlarning hissalarini katta. Ayniqsa, bu sohani takomillashtirish, korxonalardagi mahsulot turi va sifatini oshirishda F.X.Tojiev, N.A.Sirojiddinov, A.A.Ismatov, M.Yu.Yusupov, Ch.A.Ismoilov, A.P.Erkaxonov, A.M.Eminov, Sh.Yu.Azimov, A.A.Ibrohimov, D.I.Maqsudov, T.I.Olimjonov va R.Yu.Yusupov kabi olim va muhandislarning xizmati kattadir. Chinni mahsulotlari silikatlarning keramika va o'tga chidamli materiallar texnologiyasi asosida ishlab chiqariladigan nafis keramika buyumlari turkumiga kiradi. Chinni mahsulotlari xo'jalik, badiiy va elektrotexnika chinnisiga bo'linadi. Chinnilar qattiq va yumshoq, yuqori va past haroratda pishuvchi mahsulotlarga bo'linadi. Qattiq chinni tarkibiga uch turli xomashyo: 50% kaolin va gilduproq, 25% dala shpati va 25% kvars kiradi (9-rasm). Bunday tarkibdagi massa sopolagi 1350°C haroratda zichlanadi. Shu tufayli uni yuqori haroratda pishuvchi massalar turkumiga qo'yish mumkin. Toshkent kimyo-texnologiya institutining «Silikat moddalar texnologiyasi» kafedrasining olimlarining yigirma yil davomida olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijasida qattiq chinni tarkibidagi dalashpati va kvarsni Qorator fosforiti va Markaziy Qizilqum konlaridan qazib olinadigan fosforit moddasi yoxud hayvonlar suyagining kuli bilan almashtirish mumkinligi aniqlandi. Eng ijobiy narsa shuki, ushbu mahalliy xomashyolarni chinni tarkibiga kiritish natijasida qattiq chinnining fizik-mexanikaviy xususiyatlari to'la saqlanib qolgan holda pishish harorati 200°C gacha kamaydi. Natijada yuqori haroratda pishuvchi massa turidan past haroratda sopolagi yetiluvchi yangi mahsulot turiga o'tildi. Yumshoq chinni buyumlari tarkibiga kvars va dala shpati ko'proq kiradi. Undagi kvars miqdori 35%, dala shpati esa 34% bo'lishi mumkin. Yumshoq chinnining bir turi bo'lgan ingliz chinnisi tarkibiga esa 43—49% suyak kuli, 16—21% kvars, 18—19% gilduproq va 11—43% chinni gili kiradi. Bunday chinni sopolagi 1250—1280°C haroratda pishadi. Chinni tarkibiga kiruvchi barcha komponentlar texnologik jarayon va tayyor mahsulotlarning fizik-texnikaviy xossalari ta'sir o'tkazadi. Bu o'rinda, ayniqsa, gillarning ta'siri seziluvchidir. Gil, tuproq, loy tuproq chinni

tarkibiga aluminiy (III)-oksidini olibkiradi. Shu tufayli ularni kimyoviy jihatdan aluminiyning asosiy silikati deb qarash mumkin. Tarkibidagi aluminiy (III)-oksidining miqdoriga ko'ra, ular ikki katta guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga kiruvchi gilli xomashyo tarkibida asosiy aluminiyli oksidning miqdori 46%ga yetmaydi, ikkinchi guruhga kiruvchi yuqori glinozyomli xomashyolarda aluminiy(III)-oksidining miqdori 46% dan ortiq bo'ladi. Gillar, kaolinlar, loy tuproqlar, suxarilar vaslanesligillarga ajraladi. Kaolin gili tarkibida 39,5% aluminiy (III)-oksid, 46,5% kremniy (IV)-oksid va 14% suv bo'ladi. Gil tarkibida kam miqdorda temir (III), magniy, kalsiy, natriy, kaliy, bariy va boshqa metall oksidlarining aralashmalari bo'ladi. Ularning kristallari monoklinsingoniyaga mansub. Simmetriya ko'rinishi o'qsiz dielektrik, fazaviy guruhi ss. Elementaryacheykasining a, b, va c qirralarining uzunligi 5,14; 8,90 va 14,45 angstromga teng. Betaburchagining kattaligi 100°C atrofida. Kaolinning ayrim tanga va plastinka kristallari rangsiz, ko'pincha sarg'ish va qizg'ish, ba'zan yashil va ko'kimtir tovlanib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev N. San'at tarixi. 2t.-T.; «San'at» 2001, 89-b.
2. Qurbanova Y. Amaliy san'at buyumlariga badiiy ishlov berishda turli ranglardan foydalanish. BMI. Toshkent – 2014, 104-b .
3. B.Qurbonov, G.Qurbanova Texnologiya Va Dizayn Toshkent -2020, 246-b
4. Sadikova N. O'zbek milliy kiyimlari: XIX–XX asrlar.
– T., 2006.
5. Malikova S.S. Tasviriy san'at tarixi. – T., 2008.
6. Abdullayev N.U. San'at tarixi. 2-tom. – T.: «O'qituvchi»